

**OZODLIKDAN MAHRUM ETISH MUASSASALARIDA
SAQLANAYOTGAN SHAXSLARNING SAYLASH HUQUQINI
TA'MINLASH BO'YICHA AMALGA OSHIRILAYOTGAN
ISLOHATLAR.**

Murtozayev Ozodbek Odiljon o'g'li

O'zbekiston Respublikasi IIV akademiyasi 3 - o'quv kurs kursanti.

***Annotatsiya:** So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan islohotlar davlat boshqaruvi, inson huquqlari va demokratiya sohalarida muhim o'zgarishlarni keltirib chiqarmoqda. Ayniqsa, siyosiy huquqlarni ta'minlash va fuqarolarning saylovda ishtirok etish imkoniyatlarini kengaytirish borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar jamiyatda huquqiy davlat tamoyillarining mustahkamlanishiga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, ozodlikdan mahrum etish muassasalarida saqlanayotgan shaxslarning saylash huquqini ta'minlash mexanizmini takomillashtirishning dolzarbgi*

***Kalit so'zlar:** Ozodlikdan mahrum etish muassasasi, Saylash huquqi, Siyosiy huquqlar, Saylovda ishtirok, Qonunchilik islohotlari, Xalqaro tajriba*

***Annotation:** In recent years, the reforms implemented in the Republic of Uzbekistan have led to significant changes in the areas of state governance, human rights, and democracy. In particular, measures aimed at ensuring political rights and expanding citizens' opportunities to participate in elections are contributing to the strengthening of the rule of law in society. At the same time, the issue of improving the mechanisms for ensuring the right to vote for persons held in detention facilities is of urgent importance.*

***Keywords:** Detention facilities, Right to vote, Political rights, Electoral participation, Legislative reforms, International experience.*

Mavzuni dolzarbligi: So'ngi yillarda dunyoda shuningdek, yurtimizda amalga oshirilayotgan islohatlarning tub zamirida inson huquqlari uning

erkinliklari, sh'ni qadr-qimmatini yotadi. Amlaga oshirilayotgan ishlar natijasida davlatimizda inson huquqlari yuqori darajaga ko'tailayotganini ko'rishimiz mumkin.

Bugungi kunda davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2024-yil 28-avgust kuni Jinoyat-protsessual kodeksiga mahkumlarning huquq va qonuniy manfaatlarini ta'minlash hamda ularni yangilangan Konstitutsiyaga muvofiqlashtirish nazarda tutilgan o'zgartishlar kiritish to'g'risidagi qonunni qabul qilindi. Xususan, mahkumlarning insonparvar munosabatda bo'lish, sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilish, mahkumlarning huquqlarini ta'minlash alohida ahamiyat kasb etadi. Shuningdek davlat organlari, Ombudsman, Bolalar ombudsmani, inson huquq va erkinliklarini himoya qilish bo'yicha xalqaro organlarga murojaat qilish bo'yicha o'zgartirishlar kiritilmoqda. Bundan tashqari, mahkumlarning siyosiy huquqlarini taminlash maqsadida og'ir va o'ta og'ir jinoyatlar sodir etganlik uchun ozodlikdan mahrum qilish joylarida o'tkazilayotgan mahkumlarning saylov va referendumlarda ishtirok etish huquqi kafolatlanadi. Shuningdek, agar mavjud bo'lgan barcha ichki himoya vositalari tugatilgan bo'lsa, bunday mahkumlarning O'zbekiston qonunchiligi va xalqaro shartnomalariga muvofiq inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish bo'yicha xalqaro organlarga murojaat qilish huquqi ham nazarda tutilganligi taminlandi. Ilgari qonunchilikda mahkumlarning xalqaro inson huquqlari tashkilotlariga murojaat qilish huquqi nazarda tutilmagan edi. O'zgartishlarda bunday mahkumlar, agar qonun hujjatlariga muvofiq va sud hukmi asosida ushbu huquqdan mahrum etilmagan bo'lsa, saylovlar va referendumlarda qatnashish huquqiga ega ekani belgilab qo'yilgan. Hujjatga ko'ra, mahkumlar yangilangan Konstitutsiyaning 28-moddasi oltinchi qismida nazarda tutilganidek, "Insonparvar muomala qilish, insonga xos bo'lgan sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilish huquqiga ega"¹. Jazoni ijro etish muassasalari xodimlari mahkumlarga nisbatan insoniy munosabatda bo'lishga majburdirlar. Mahkumlarga nisbatan intizomiy jazo choralari va boshqa majburlov choralari

¹ O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi 28 –moddasi

qo‘llashda Jinoyat-protsessual kodeksida belgilangan asoslar va tartiblardan chetga chiqishga yo‘l qo‘yilmaydi. Mahkumlarga ularning rozilgisiz tibbiy va ilmiy tajribalar o‘tkazish mumkin emasligi qat’iy belgilandi. Bundan tashqari, yangi norma mahkumlarning Ombudsman va Bolalar ombudsmani bilan murojaat qutisi orqali bog‘lanishi, u orqali murojaatlarni tashkil etish, ochish, foydalanish, shuningdek yuborish tartibini belgilab beradi. O‘zbekiston Respublikasida saylov huquqi — har bir fuqaroning muhim huquqidir, bu huquq jamiyatning demokratiyasi va inson huquqlarining asosiy belgilari hisoblanadi. Saylash huquqi barcha fuqarolarga teng berilishi kerak bo‘lsa-da, ozodlikdan mahrum etish muassasalarida saqlanayotgan shaxslarning saylash huquqi bo‘yicha dolzarb masalalar mavjud. Ayniqsa, mahkumlarning saylash huquqini ta‘minlash mexanizmlari davlatning demokratik rivojlanish yo‘lida muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda, O‘zbekiston Respublikasining yangi konstitusiyasi qabul qilingandan keyin Jinoyat ijroiya kodeksining 9-moddasiga muvofiq “Ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan va uncha og‘ir bo‘lmagan jinoyatlar sodir etganligi uchun ozodlikdan mahrum etish joylarida saqlanayotgan mahkumlar O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatlari, xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlari deputatlari saylovlarida hamda referendumda ishtirok etish huquqiga ega” i ekanligi qonuniylashtirildi. Shu bilan birga, mamlakatda saylov tizimini isloh qilish, saylovda ishtirok etishni ta‘minlash va saylov huquqining himoyasini kuchaytirish zarurati dolzarb masaladir. O‘zbekiston Respublikasining saylov huquqini ta‘minlash tizimi va mahkumlarning saylash huquqi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni chuqur o‘rganish, bu masala bo‘yicha qonunchilikni yanada takomillashtirishga yordam beradi. Agar biz saylov huquqi va ozodlikdan mahrum etish muassasasida saqlanayotgan shaxslarning saylash huquqini ta‘minlash mexanizmlarini tahlil qilsak, quyidagi muammolarni ko‘rishimiz mumkin:

1. Mahkumlarning saylovda ishtirok etishiga bo‘lgan cheklovlar.

O‘zbekiston qonunchiligida, umumiy tarzda, jazo muddatini o‘tayotgan

mahkumlarga saylovlarda ishtirok etish huquqi berilgan. Biroq, amaliyotda mahkumlar o'z saylov huquqlaridan to'liq foydalana olmayaptilar, bu esa ularning huquqlarini to'liq amalga oshirishga to'sqinlik qilmoqda.

2. **Saylov huquqining himoyasizligi.** Saylov jarayonidagi o'zgarishlar va takomillashtirishlarni amalga oshirishda, **mahkumlarning** saylov huquqlarini himoya qilish mexanizmi hali to'liq ishlab chiqilmagan. Bu esa mahkumlarning siyosiy faolligini pasaytiradi va ijtimoiy integratsiyasiga to'siq bo'ladi.

3. **Saylovda ishtirok etish mexanizmlarini takomillashtirish zarurati**

Mahkumlarning saylovda ishtirok etish huquqini ta'minlashning samarali mexanizmlari hali takomillashmagan. Saylovlarda ishtirok etish uchun tegishli huquqiy baza va amaliy mexanizmlarni yaratish zarur.

4. **Mahkumlar huquqlarining amalga oshirilishidagi nog'orliklar.** Mahkumlarning huquqlarini himoya qilish bo'yicha joriy tizimda ba'zi nog'orliklar mavjud. Saylov jarayonida, ayniqsa mahkumlar uchun bu huquqning amalga oshirilishi murakkab va takomillashtirishni talab qilmoqda.

Ushbu muommolarni yechimi sifatida quyidagi takliflar va tavsiyalarni o'z ichiga oladi:

Mahkumlarning saylovda ishtirok etish huquqini ta'minlash uchun alohida qonuniy asoslar yaratish zarur. "Saylov to'g'risida"gi qonun va boshqa qonunlarda mahkumlarning saylovda ishtirok etishi uchun aniq me'yorlar belgilanishi kerak. **Maxsus mexanizmlar va jarayonlarni joriy etish:**

Mahkumlar uchun saylovda ishtirok etish uchun maxsus mexanizmlar ishlab chiqish kerak. Bunga saylov materiallari va qayd etish jarayonlarini osonlashtirish, maxsus saylov uchastkalari tashkil qilish kabi tadbirlar kiradi. **Inson huquqlari bo'yicha xalqaro standartlarga moslashish:**

Xulosa: O'zbekiston Respublikasida **ozodlikdan mahrum etish muassasida saqlanayotgan shaxslarning saylash huquqini ta'minlash** dolzarb muammo bo'lib, uning yechimi nafaqat mahkumlarning huquqlarini himoya qilish, balki davlatning demokratik rivojlanishiga ham hissa qo'shadi. O'zbekiston

qonunchiligiga muvofiq, mahkumlarning saylovda ishtirok etish huquqi kafolatlangan bo'lsa-da, bu huquqni amalda ta'minlash uchun bir qator takomillashtirishlar zarur. Bu borada xalqaro standartlarga mos keladigan huquqiy me'yorlar va samarali mexanizmlar yaratish lozim.

ⁱ O'zbekiston respublikasining jinoyat-ijroiya kodeksi 9- moddasi